

**SURXANDARYO VILOYATI BOYSUN TUMONIDA JOYLASHGAN  
OMONXONA SUVINING TARIXI VA HOZIRGI KUNDAGI ORNI .**

**Inoyatova Yulduz Qaxramon Qizi**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi

**Ilmiy rahbar: F.J.Yormatov**

tarix fanlari nomzodi dotsent

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada Surxandaryo viloyati Boysun tumanidagi Omonxona suvining tarixi, inson organizmga suvining tasiri u yerdagi reaksiya tizimlarini rivojlantirish borasida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit sozlari:** Hisor tizmasi, Surxon vohasi, Abror Jabborov, Shifobaxsh suv, Nurinbek Qolibekov, Dildora Ziyodova , 150 ta fermer, Muzaffar, Nilufar Umarova.

**Иноятова Юлдуз Кахрамон Кизи**

Студентка 2 курса Термезского университета экономики и сервиса по специальности «История».

Научный руководитель: кандидат исторических наук, доцент: **Ф.Я.Ёрматов**

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье представлены сведения об истории воды Омонханы Байсунского района Сурхандарьинской области, влиянии воды на организм человека и развитии там реакционных систем.

**Ключевые слова:** Хисарский хребет, Сурханский оазис, Аброр Джаббаров, Шифобахшская вода, Нуринбек Коллибеков, Дилдора Зиядова, 150 земледельцев, Музаффар, Нилуфар Умарова.

**Inoyatova Yulduz Qaxramon Qizi .**

2nd-year student of Termiz University of Economics and Service, majoring in history

Scientific supervisor: Candidate of History, Associate Professor: **F.J.Yormatov**

**ANNOTATION:** This article provides information on the history of Omonkhana water in Boysun district of Surkhandarya region, the impact of water on the human body and the development of reaction systems there.

**Key words.** Hisar ridge, Surkhan oasis, Abror Jabbarov, Shifobakhsh water, Nurinbek Qolibekov, Dildora Ziyadova, 150 farmers, Muzaffar, Nilufar Umarova.

**Kirish.** Surxondaryo viloyati uzoq vaqt sir bo‘lib keldi. XIX asrning oxirgi choragigacha Hisor tizmasining janubida joylashgan tog‘lar deyarli o‘rganilmagan edi. 1875-yilda “Hisor ekspeditsiyasi” davomida Surxondaryo viloyatining yangi xususiyatlari kashf etila boshlandi. Ma’lum bo‘lishicha, Surxon vohasi tekislikning pastida joylashgan bo‘lib, sharqdan, shimoldan va g‘arbdan tog‘ tizmalari bilan o‘ralgan. Janubdan vohani O‘rta Osiyodagi eng sersuv daryo – Amudaryo yuvib turadi. Geografik joylashuvi hamda orografik xususiyatlari mintaqaning o‘ziga xos iqlimini shakllantirgan. Hisor tizmasining g‘arbiy cho‘qqilari vodiyni sovuq havo massalarining kirib kelishidan himoya qiladi, janubiy tomoni ochiqligi esa issiq tropik havoning kirib borishi uchun zamin yaratadi.. Boysun tumani markazidan sharqqa eltuvchi katta yo‘l chetidagi belgi “Omonxona” sanatoriysiga yetaklaydi. Sanatoriy Omonxona qishlog‘ida joylashgan. Mahalliy oqsoqollarning aytishicha, bu yerda 700 yildan beri odamlar yashaydi. Buni qishloqdagi eski qabriston va undagi qabr toshlari ham tasdiqlaydi. “Omon” so‘zi sog‘lom, xavfsiz, tinch, osoyishta, “xona” so‘zi esa xona, joy, manzil, makon ma’nolarini bildiradi. Xullas, “Omonxona” tinchlik, salomatlik va osoyishtalik maskanidir. Katta yo‘ldan burilib, qirlar orasidan 15 kilometr yurganingizdan so‘ng qishloq markaziga yetib borasiz. O‘z nomi oshkor bo‘lishini istamagan fuqarolarning e’tiroz qilishlaricha, asrlar osha ota-bobolari iste’mol qilib kelgan suv 2 yildan buyon aholiga pullanmoqda. Sihatgoh oldiga chiqarilgan quvurlardan suvlar qadoqlangan idishlarga quyib berilmoqda — hech qanday yorliqlarsiz. Holbuki, 2017 yilgacha bu suvni qishloqliklar va bu yerga kelgan mehmonlar tekinga, bemalol tashib ichishgan. «Omonxona» sihatgohi direktori o‘rinbosari Abror Jabborov bilan aloqaga chiqqanimizda u hukumatning 2014 yil oktabr oyidagi farmoyishiga ko‘ra, «Omonxona» sihatgohi «O‘zbekiston temir yo‘llari» AJ ixtiyoriga berilganini aytib o‘tdi. Mazkur farmoyishdan so‘ng sihatgoh atrofi o‘ralgan. Xususan, suv chiqadigan buloq muhofaza zonasi yaratilgan. Shifobaxsh suv sifati nazoratga olingan. 2017 yilda undan quvur tortilib, suv sihatgoh darvozasi oldigacha chiqarilgan. Chunki, sihatgohga davolanish uchun keluvchi doimiy 200-300 atrofidagi bemorlar ham shu suvdan iste’mol qilishadi. Farmoyish ijrosi ta’minlanishi asnosida 2015 yilda shifobaxsh suvning sarfi hisobi yuritilib, uning har bir litriga 56 so‘m narx belgilangan. Bugungi kunda qayta

hisoblash natijasida uning bir litri barchaga 200 soʻmdan sotilmoqda. Sihatgohda shifobaxsh suv realizatsiyasiga mas'ullaridan biri — «Omonxona» sihatgohi kassiri Sharif Jalolovning aytishicha, shu buloqdan suv qadoqlash fabrikasiga ham uzatiladi. Fabrikada gazlangan va gazlanmagan holda, 1,5 litrlik plastik idishlarga quyiladi. Aynan oʻsha sanoat usulida qadoqlanadigan suvlarga oʻrnatilgan tartibda yorliqlar yopishtiriladi. Oddiy fuqarolar esa darvoza oldidagi quvurlardan chiqayotgan suvni oʻzlari uchun xarid qilishadi. Omonxona qishlogʻi boʻysunadigan «Inkabod» mahalla fuqarolari yigʻini raisi Ahmad Qurbonov bilan bogʻlandik. Raisning aytishicha, 230 xoʻjalik, 1100dan ziyod aholi istiqomat qiladigan Omonxona qishlogʻiga Boshbuloq chashmasidan ichimlik suvi tortib kelingan, biroq 29-maktabgacha tortib keltirilishi kerak boʻlgan suvni tortish ishlari mablagʻ yetishmovchiligi tufayli oxirigacha yetkazilmagan. Lekin rais qishloqning bir qismiga Boshbuloq chashmasidan ichimlik suvi kelgani, undan odamlar tekin foydalanishayotganini ham aytib oʻtdi. Rostdan ham katta koʻchalarda yorliq yopishtirilmagan 5 va 10 litrlik plastik idishlarda sotilayotgan «Omonxona» suviga ishonsa boʻladimi? Ha, biz bunday idishlarga suv Omonxona sihatgohi darvozasi oldida quyib olinayotganiga guvoh boʻldik. Demak, koʻchada katta idishlarda sotuvga chiqarilgan Omonxona suvi sanoat usulida emas, shu yerlik aholi tomonidan qadoqlab sotilayotgani uchun ularning idishida yorliq yopishtirilmagan. Shifobaxsh suvning sotilayotgani masalasiga kelsak, unga belgilangan narx oʻzboshimchalik bilan emas, hukumat farmoyishiga asosan qoʻyilganini bilib oldik. Lekin murojaatchilar bir masalada haq: boysunlik mutasaddilar boshlangan ishni oxirigacha yetkazishlari, bu borada kerak boʻlsa omonxonaliklarning qadimiy bulogʻini ihotalab olib, suvini sotayotgan «Oʻzbekiston temir yoʻllari» AJdan aholini ichimlik suvi bilan bepul taʼminlash masalasini hal qilishlari adolatdan boʻlar edi. Surxon vohasining Boysun tumanida joylashgan «Omonxona» bal neologik shifo maskani koʻrkam imorati, qulay shart-sharoitlari va goʻzal manzarasi, tabiiy shifo suvlari bilan maʼlum va mashhurdir. «Oʻzbekiston temir yoʻllari» aksiyadorlik jamiyati tashabbusi bilan jahon talablari darajasida yangitdan qad rostlagan maskanda oshqozon-ichak, qandli dia-bet, yurak-qon tomir, jigar, oʻt, umurtqa pogʻona kasalliklari bilan ogʻrigan bemorlar shifo topishmoqda. Omonxona atrofidagi togʻ buloqdaridan chiqayotgan shifobaxsh suvi bilan mashhur. Mazkur buloq suvi tarkibida sul fat, magniy, azot ionlari mavjudligi qolaversa, kremniy kislotasi, temir, alyuminiy va boshqa koʻplab mikroelementlar ham boʻlib, sul fat va magniy ionlari meʼyordagidan bir necha barobar koʻpligi uchun yuqori darajada oʻt soʻruvchi, peshob xaydovchi hamda qon bosimini tushiruvchi xususiyatlarga ega. «Sihatgoh» sanatoriy-profilaktoriy 50 oʻrinli boʻlib, bu erda bir yil davomida

700 dan ziyod xodim sog'lomlashtiriladi. Davolanish va dam olish muddatlari 10 – 15 kundan iborat. Dam olish yo'llanmalardan foydalanish asosida tashkil etilgan. Bu shifo maskanida asosan yurak, asab, oshqozon-ichak, nafas olish organlari, xarakter a'zolari, urologik kabi kasalliklar davolanadi. Shuningdek, fiziote-rapiya, uqalash, sauna, ingalyasiya, parafin, suv muolajalari (sirkulyar dush, «sharko», yomgirli, suv osti dush-massaji, vanna) orqali davolash, stomatologiya, tuzxona, jismoniy tarbiya xonasi, giyoxlar bilan davolash, muolaja xonasi mavjud bo'lib, malakali shifokor va hamshiralar dam oluvchilarga xizmat ko'rsatadilar. Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi Omonxona bulog'i shifobaxshligi bilan allaqachon mashhur bo'lib ulgurgan. Bu suvning o't pufagi, jigar va boshqa ichki organlarni yuvib, darddan forig' etishda zamonaviy tibbiyotda qo'llaniladigan gemodezdan bir necha barobar afzalligi aniqlangan, deya xabar beradi Mutaxassislarining fikricha, tog' bag'ridan sizib chiqayotgan buloq suvi tarkibida kremniy kislotasi, temir, alyumin kabi inson organizmi uchun ko'plab foydali elementlar mavjud. So'lim go'shadagi obihayotdan samarali foydalanish maqsadida "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati bu yerda zamonaviy shifoxona barpo etdi. Har yili so'lim maskanda minglab odam salomatligini tiklamoqda. Odamlarga shifo ulashayotgan tog' bag'rida tabiatning yana bir tilsimi — g'aroyib g'or ham bor. Buloqdan uncha uzoq bo'lmagan balandlikda joylashgan ushbu g'orni mahalliy aholi "Omonxona sovutgichi", deb ataydi. G'or tuynugidan odam tanasi biroz siqilib o'tadi. Uch metrcha chuqurlikdagi g'or ichkarisi keng, xuddi xonani eslatadi. Shu yerlik odamlarning aytishicha, yer qismi mayda tog' toshlaridan iborat bu xona yoz chillasida 5-6, qishda 20 darajagacha iliq bo'ladi. Shu bois, ko'p asrlardan buyon tevarak-atrof odamlari sariyog'ni shu g'orda saqlashga odatlangan. Mabodo, yoz chillasida salqin va bahavo g'orga tushilsa, ko'ngil sust ketib, mahalliy aholi tomonidan qo'yilgan sariyog'dan bir chimdim bo'lsa-da, olib chiqishga urinmaslik kerak. Aks holda, g'or tuynugi kutilmaganda torayib, tashqariga chiqishga yo'l qo'ymasligi ehtimoldan xoli emas. Har qalay, omonxonaliklar o'tmishdan qolgan bu rivoyatga hozir ham qat'iy amal qilib keladi. Surxondaryo viloyatidagi Omonxona qishlog'i Boysun tuman markazidan 16 kilometr uzoqlikda joylashgan. Uning atrofi bir-biri bilan yelka tirashgan qir-adirliklar bilan o'ralgan. Tabiati so'lim. Tog'dan esib turadigan shabada kishi qalbiga orom baxsh etadi. Bu yerda ming nafardan ortiqroq aholi, 150 xo'jalikda umrguzaronlik qilishadi. Gapning sarasini aytganda, Omonxonaga Ollohning nazari tushgan. Keksa odamlarning naql qilishlaricha, o'troq aholi hozirgacha o'tkir yuqumli kasalliklarga chalinmagan. Ular sariq kasalligi u yoqda tursin, hatto oshqozon ichak kasalligi bilan ham og'rimagan, hatto bu yerda hech kim shu paytgacha yuqumli kasalliklar bilan og'rib, shifokorga

murojaat qilmagan. Aksincha, sariq kasalligiga chalingan, yoxud jigar serrozi hayotiga chang solgan kishilar Omonxonadan najot izlashadi. Uzoq manzillardan yo`l yurib, ana shu qadimiy, ayni paytda yasharib, yashnab borayotgan ko`rkam qishloq tomon oshiqishadi. Qozog`istondan keldim, Nukus shahrida yashayman. Katta yerim bor, fermerman, - deydi Nurinbek Qolibekov. - Bundan 15 yil ilgari sariq kasalligi bilan og`rigan edim. Jigarim kattalashib, serrozga aylana boshlagandi. Omonxona suvi bu dardga davo deb eshitgach, yo`lga chiqdim. Dastlabki kunlardan oq menda ijobiy o`zgarishlar yuz berayotganligini his etdim. O`shandan buyon Omonxona mening ikkinchi qo`noq maskanimga aylangan. Bu mo`jizaga boy suv menga yana jo`shqin hayot baxsh etdi. Bu mubolag`a emas, omonxona suvi mo`jizaning o`zginasi. Kishi o`yga toladi. Qishloq chag`atlar o`ngirida joylashgan. Uning zamini toba, ya`ni yirik yassi toshlar bilan qoplangan. Ana shu qattiq jismni yorib buloqlar ko`z ochgan. Bu buyuk Yaratguvchining qudrati emasmi? Chashmaning suvi magniy-sulfad va boshqa turli foydali mineral moddalarga boyligi bilan dunyoga mashhur shifobaxsh ma`danli suvlardanda afzalroq ekanligi tan olingan. Suv kishi tanasidagi o`tni surish, uni suyultirish, peshobni haydash, qabziyatni bo`shatish, qon bosimini pasaytirish kabi turli xil xastaliklarni davolashga ijobiy ta`sir etadi. Omonxona suvini iste`mol qilgan kishida oshqozon-ichak, sariq va jigar serrozi kabi o`tkir yuqumli kasalliklar uchramaydi. Respublikamizning turli kasalxonalarida bo`lganman. Shifokorlar davolashning iloji yo`q, bunga hozircha tibbiyot ojiz, degan xulosaga kelgan paytda men Omonxona muqaddas bulog`i suvidan najod izladim, - deydi Abdurauf Fofurov. - Uning qudratli kuchi ta`sirida jigar serrozi rivojlanmadi, oyoqqa turdim. Bu maskanning suvi menga qayta umr baxsh etdi. To`shakka mixlanib qolgan majolsiz kishi edim. Oilamga, bolalarim bag`riga shod omon qaytdim. Ha, Omonxona suvi hayotbaxsh ne`mat. Uning dovrug`i uzoq-ug`oqlarga borib yetgan. Respublikaning barcha viloyatlaridan hatto qo`shni davlatlardan dardiga davo izlagan kishilar bu yerga kelishadi. Ollohning inoyati bilan oradan ko`p o`tmay ular sog`ayib, yurtiga qaytishadi. Omonxona suvining shifobaxsh xususiyati Yurtboshimizning ham nazariga tushdi. U kishining tashabbusi bilan Omonxona balneologik davolash maskani barpo etildi. Xozir shifoxona "O`zbekiston temir yo`llari" DUK tasarrufida. Sanatoriyada kompaniya temir yo`lchilari ham dam olishadi, davolanishadi, sog`lig`ini mustaxkamlashadi. Buning uchun sog`lomlashtirish maskanida barcha sharoitlar bor. Bu yerda ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi, - deydi sihatgoh direktori Baxtiyor Jo`rayev. - Yuz o`rinli qo`sh qavatli yangi imorat qurildi. Har bir xonada yumshoq gilamlar to`shalgan. Divan krovat, shkaf, stol va kursilar o`rnatilgan. Obodonlashtirish ishlari ham

namunali tashkil etildi. Hamma joy rango-rang gulzor, ko`kalamzor. Manzarali daraxtlarni parvarish qilishga alohida e`tibor qaratilayapti. Shifoxona baland tepalik bag`rida joylashganligi bois bemorlar pillapoyalardan iborat beton yo`lakchalardan yuqoriga ko`tarilib boradi. Atrof ko`rkam qiyofa kasb etgan. Musaffo tog` havosidan bahra olayotgan odamlarning kayfi chog`, ruhi tetik. Darvoqe, dardiga darmon izlagan kishilar uchun manzilining yaqin uzog`i bo`lmaydi. Buni sihatgohda mamlakatimizning shimoliy mintaqasi Qoraqalpog`iston, Xorazm, Buxoro, Navoiy viloyatlaridan har kuni o`nlab bemorlar qabul qilinayotganligi misolida ham bilish mumkin. Yana bir gap, ilgari davolash maskani yilning may, iyun, iyul, avgust, sentyabr oktyabr oylari davomida olib borilardi. Qish faslida esa bemorlarni qabul qilishning iloji yo`q edi. Buning sababi bor. Birinchidan suv sovuq, xonalarni isitish yo`lga qo`yilmagandi. Boz ustiga oromgoh binolari tog` yon bag`rida joylashganligi sababli mavsumda ming nafarga yaqin bemorni qabul qilish imkoniyatiga ega edi. Endi yil o`n ikki oy ish yuritish yo`lga qo`yildi. Muassasa tomonidan "Keksalarni e`zozlash yili"da alohida tadbir tuzilgan. Unga asosan joriy yilda 450 nafar qariyaning sog`lig`ini mustahkamlash rejalashtirilgan. Yaqinda yangi 100 o`ringa ega bo`lgan zamonaviy bino ishga tushdi. Ularga namunali xizmat ko`rsatuvchi tibbiyot xodimlari ham ko`paydi. Muzaffar Jalilov, Qo`shoq Otamurodov, Ibroxim Majidov singari bilimdon, tajribali shifokorlar, Nilufar Umarova, Dildora Ziyodova kabi o`rta tibbiyot xodimlari barchaning xurmatiga sazovor bo`lmoqda. Dam oluvchi kishilar tomonidan ularning sha`niga yozib qoldirilayotgan minnatdorlik so`zlarining cheki yo`q. Omonxona yil davomida mamlakatimizning turli mintaqalarida moddiy ne`mat ishlab chiqarayotgan, paxta va g`alla yetishtirishda fidokorlik namunalarini ko`rsatayotgan fermerlarning ham sevimli sihatgohiga aylandi. Buni birgina o`tgan yili 150 nafarga yaqin fermer sihatgohda sog`lig`ini mustahkamlaganligidan ham bilsak bo`ladi.

**Xulosa qilib** : Omonxona suvining tarixi va Hozirgi kundagi o`rni . Omonxona suvining shifo baxshligi inson organizmga tasiri . “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati bu yerda zamonaviy shifoxona barpo etilgan .

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1 Boboxonov Qaxramon Inoyatovich .
2. Тураев Б. А., Египетская литература, т. II, М., 1920

3. Мате М. Э., Искусство Древнего Египта, М., 1958;
4. Всеобщая история архитектуры, т. II, М., 1970
5. Культура Египта, в кн.: Музыкальная культура древнего мира, [Сб. статей], Л., 1937;
6. Лауер Ж. Ф., Загадки египетских пирамид, пер. с франс., М., 1966
7. Boynazarov F.A. Qadimgi dunyo tarixi Toshkent 2004
8. Rajabov R. Qadimgi dunyo tarixi. Toshkent 2009
9. Qosimov E. Jahon tarixi. Qadimgi va o'rta asrlar tarixi Toshkent 2013
10. Г. Редера, М., 1963; Струве В. В., Қадимги Шарқ тарихи, Т., 1956

